

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/2025.27.12.1.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

KAMOLOVA MOHINUR ISKANDAROVNA

**TURIZM SOHASIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Kamolova Mohinur Iskandarovna

Turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish

Камолова Мохинур Искандаровна

Совершенствование механизма повышения качества услуг в сфере туризма ...

Kamolova Mohinur Iskandarovna

Improving the mechanism for enhancing the quality of services in the tourism sector

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/2025.27.12.1.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

KAMOLOVA MOHINUR ISKANDAROVNA

**TURIZM SOHASIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Iqt3666 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.univ-silkroad.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Arabov Nurali Uralovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Qodirov Azizjon Anvarovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Ostanakulov Olim Toshtemirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 22/2025.27.12.1.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "_____" soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel: (998 90) 213-89-07; Faks:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" kuni tarqatildi
(2026-yil "_____" dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Eshstayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.n., dotsent

B.Sh.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish tarmoq rivojlanishining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda, chunki turizm pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichidan chiqib, tarkibiy transformatsiya davriga kirdi. UN Tourism ma‘lumotlariga ko‘ra, “2024-yilda xalqaro turizm deyarli pandemiyadan oldingi darajaga yetib, xalqaro tashriflar soni taxminan 1,4 milliardni tashkil etgan, 2025-yilda esa jahon turistik oqimi yana 4 foizga oshgan”¹. Bu borada destinatsiyalar o‘rtasidagi raqobatni faqat narx bo‘yicha emas, avvalo, servis sifati, xavfsizlik, raqamli qulaylik va turistik tajribaning barqarorligi bo‘yicha ham kuchaytirmoqda. Shu bois, bugungi kunda texnologiklik, mijozga yo‘naltirilganlik va barqaror boshqaruv uyg‘unligi turistik xizmatlar sifatini uzoq muddatli oshirish hamda destinatsiyalar raqobatbardoshligini ta‘minlashning asosiy omili sifatida qaralmoqda. Bunday sharoitda turli mamlakatlarda bron qilish va fikr-mulohaza almashishning raqamli platformalarini joriy etish, ma‘lumotlar asosida xizmatlarni personalizatsiyalashtirish, inklyuziv va hammabop turizm standartlarini rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish, xizmat ko‘rsatish tizimiga ekologik va inklyuziv tamoyillarni integratsiya qilishga alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish mavzusi doirasida, eng avvalo, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish, inklyuzivlik va mijozga yo‘naltirilgan boshqaruvga asoslangan turistik servis sifatining yangi modelini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Bu borada xalqaro va akademik tadqiqotlar e‘tibor markazida bron qilish, hamrohlik qilish hamda turistik tajribani baholash jarayonlariga raqamli texnologiyalar va smart-yechimlarni joriy etish, xizmatlarni personalizatsiyalashtirish uchun katta ma‘lumotlar va raqamli platformalardan foydalanish, turistik muhitning turli toifadagi iste‘molchilar uchun ochiqligi va qulayligini oshirish, kadrlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, xizmat ko‘rsatish tizimiga ekologik standartlar va barqaror boshqaruv tamoyillarini integratsiya qilish masalalari turadi. Shu bois, yanada barqaror, inklyuziv va raqobatbardosh turistik sektorni shakllantirish uchun o‘zaro muvofiqlashtirilgan siyosatlar muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi, zamonaviy ilmiy nashrlar esa raqamlashtirish, innovatsiyalar va “yashil” transformatsiya xizmat ko‘rsatish sifati, turistik korxonalar faoliyati samaradorligi hamda destinatsiyalar raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida turizm iqtisodiyotining innovatsion sektorini rivojlantirish, turizm sohasida raqamli xizmatlarni kengaytirish, turistik xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Turizm sohasini loyiha boshqaruvi tizimiga o‘tkazish, turizm mahsulotlarini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha yagona

¹ https://en.unwto-ap.org/news/worldtourismbarometer_jan2025

mexanizmni joriy etish hamda yirik tadbirlarni muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarur”². Bu borada, belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, eng avvalo, turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirishning institutsional, tashkiliy-iqtisodiy va raqamli mexanizmlarini takomillashtirish, inson qadrini yuksaltirish, sifatli ta’lim, hududiy rivojlanish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va xizmatlar sohasi samaradorligini oshirish, barqaror iqtisodiy o’sish, raqamlashtirish, inson kapitali, ekologik barqarorlik va institutsional samaradorlikni kuchaytirish, turistik xizmatlar sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish, turistlar qoniqishi va sodiqligini aniqlovchi omillarni ekonometrik tahlil qilish, xizmat ko’rsatish jarayonlariga raqamli platformalar va smart-yechimlarni joriy etish samaradorligini baholash, kadrlar malakasi, servis standartlari va menejment sifatining o’zaro bog’liqligini o’rganish, hududlar kesimida turizm infratuzilmasi, xavfsizlik, ekologik talablar va inklyuziv xizmatlar holatini kompleks baholash, innovatsion yondashuvlar orqali raqobatbardosh va barqaror turistik destinatsiya modellarini shakllantirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 30-yanvardagi PF-15-son “O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan madaniyat va turizm sohalaridagi aloqalarini yanada kengaytirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 26-aprelda PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyulda PQ-269-son, 2025-yil 11-noyabrda PQ-348-son “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi³.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-yanvardagi “Turizm va madaniyat sohasidagi masalalar muhokama qilindi” / <https://president.uz/oz/lists/view/8860>

³ <https://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirishning ilmiy-metodologik jihatlari xorijlik olimlar J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, A.Parasuraman, V.Zeytaml, L.Berri, E.Deming, Dj.Djuran, F.Krosbi, K.Isikava, A.Feygenbaum, T.Taguti⁴, L.V.Baumgarten, V.Ya.Belobragin, I.V.Zorin, A.P.Gorbunov, L.Ya.Burnyasheva, L.X.Gazgireyeva, V.V.Kolocheva, M.A.Morozov, V.S.Senin, A.D.Chudnovskiy⁵ va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda ham turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalariga bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, N.S.Ibragimov, U.R.Matyakubov, A.T.Mirzayev, M.T.Alimova, N.Sh. Mansurova⁶ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Ta'kidlash lozimki, dissertasiya tadqiqoti muammolarini o'rganishda yuqorida sanab o'tilgan olimlarning hissasi ulkan. Ammo ularning asarlarida

⁴ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под ред. д.э.н., проф. Куракова Л.П. – М.: МИЭМП, 2010; Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. дом “Вильямс”, 2005. – 808 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. пред. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Parasuraman, A. SERVQUAL: A multiple-item scale for measuring consumer perceptions of service quality / A. Parasuraman, V.A. Zeithaml, L.L. Berry // Journal of Retailing. – 1988. – № 64. – С. 12–37; Э.Деминг, Дж.Джурман, Ф.Кросби, К.Исикава. А. Фегенбаум, Т. Тагути. Гуру менеджмента качества и их концепции. <http://www.management.com.ua/qm/qm009.html>

⁵ Баумгартен, Л. В. Управление качеством в туризме / Л.В. Баумгартен. – Москва: КНОРУС, –2016. – 284 с.; Белобрагин, В. Я. Основные направления формирования национальной системы управления качеством туристических услуг с использованием инновационных технологий / В.Я. Белобрагин, Т.И. Зворикина, Д.Р. Макеева // Стандарты и качество. – 2012. – № 6 (33). – С. 118–130; Зорин И.В. Туризм как вид деятельности / И.В.Зорин, В.А.Квартальнов. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 288 с.; Горбунов А.П., Бурняшева Л.А., Газгиреева Л.Х., Рудь Н.Ю. Инновационный туристический кластер как модель устойчивого развития регионов / А.П. Горбунов // Известия Кабардино-Балкарского научного центра РАН. – 2016. – № 4 (72). – С. 62–66; Колочева В. В. Особенности оценки качества туристических услуг / В.В.Колочева// Российское предпринимательство. – 2017. – Т. 18, № 21. – С. 3361–3370; Морозов, М. А. Формирование системы независимой оценки качества услуг в сфере туризма // Сочи Журнал экономики. – 2019. – Т. 13, № 3. – С. 321–329. Сененин В.С. Организация международного туризма / В.С.Сенин. – М.: Финансы и статистика, 2014. – 400 с.; Чудновский А.Д. Туристические услуги. Туристическое обслуживание / А.Д.Чудновский, В.С.Сенин, – М.: ФиС, 2008. – 224 с.

⁶ Абдурахманов К.Х. Менежмент туризма // Учебное пособие. – Т.: Наука и техника, 2014. – 332 с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. – Национальная энциклопедия Узбекистана, 2006.; Tuxliev I.S., Qudratov G'.X., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish // Darslik. – Т.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2010. – 238 b.; Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. // T: Fan, 2011. – 280 b.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. // T.: Fan va texnologiya, 2016. T. 1. № 1. 184 b.; Xamidov O.X. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand: SamISI, 2017. – 260 b.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. 68 b.; Norchayev A.N.Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari // iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т.: TDIU, 2021. – 246 b.; Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash // dis. ... i.f.n. Buxoro, 2006. T. 1. № 1. 183 b.; Matyakubov U.R. Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – Urganch, 2022. – 78 b., Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – Т.:, 2021. 68 b., Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // dok. dis.... Samarqand: SamISI, 2017. T. 1. № 1. 265 b.; Mansurova N.Sh. Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish // diss. DSc. – Samarqand: “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, 2025. 239 b.

turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirishning ayrim jihatlari o'rganilgan.

Shuningdek, respublikamizda mavjud ulkan turistik salohiyatdan unumli foydalanish, turizmni rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, ularda raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Ushbu muammolarning innovatsion iqtisodiyot sharoitida ahamiyatliligi va yetarlicha o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi, asosiy vazifalarini aniqlashga imkon yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, № SRITU-18/02 – "Turizm va madaniy merosni samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan, shuningdek, №IL-9124093892-sonli "Inklyuziv turizmni tashkil etishning metodik asoslarini ishlab chiqish (Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota va Qiziltepa tumanlari misolida)" mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida amalga oshirilib, loyiha bo'yicha tegishli ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"turistik xizmat" va "turistik xizmatlar sifati" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ilmiy yondashuvlar asosida tahlil etish va uning takomillashgan ta'rifini ishlab chiqish;

turistik xizmatlar sifatini oshirishning asosiy tamoyillarini aniqlash;

raqamli transformatsiya sharoitida turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish omillarini tasniflash;

turizm sohasida xizmatlar sifatining iste'molchi xatti-harakatlariga ta'sir etuvchi mezonlarni ishlab chiqish;

turizm sohasida xizmatlar sifatini baholash usullarini tasniflash;

republikada turizm sohasining rivojlanish holati va tendentsiyalari tahlilini amalga oshirish;

turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirishning sotsiologik tahlilini o'tkazish;

turizm sohasida xizmatlar sifatini integral baholash usullari tahlilini amalga oshirish;

turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirishning kontseptual yo'nalishlarini ishlab chiqish;

raqamli transformatsiyalashish sharoitida turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish;

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi rivojlanishini istiqbollashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimizda turizm va mehmondo'stlik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada taqqoslash, tizimli tahlil, guruhlashtirish, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, sotsiologik baholash, regression-korrelyatsion tahlil va ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

respublika hududlarida yangi 108 ta mehmonxona, 375 ta oilaviy mehmon uyi va 123 ta xostel qurish, 745 ta kapsula va o'tov uylari, apart-otel hamda modulli mehmonxonalarini tashkil etish maqsadida mehmonxonalar xizmatlari sifati ko'rsatkichlarini integral baholash usulini qo'llash, xizmatlar sifatini aniqlash holatini past ($0,246 \leq I_s < 0,401$), o'rta ($0,402 \leq I_s < 0,556$) va yuqori ($0,557 \leq I_s < 0,712$) darajali guruhlarga tabaqalashtirish hamda servisni oshirish ko'rsatkichlarini alohida yo'nalishlar bo'yicha tizimlashtirish asosida yirik, o'rta va kichik mehmonxonalar hamda boshqa turizm obyektlarini qurish loyihalarini amalga oshirishda "Integral turizm" takomillashtirilgan usulidan foydalanish taklifi asoslangan;

mamlakatimizda 2030-yilga qadar turizm sohasini rivojlantirish, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizga yetkazish, xorijiy turistlar sonini hozirgi 10 mln nafardan 20 mln nafargacha oshirish, turistik xizmatlar eksporti yillik hajmini 6 mlrd AQSh dollaridan ortiq darajaga yetkazish maqsadida hududda turistik xizmatlar sifatini oshirish jarayonini turistik xizmatlar sifati holatining (joriy) darajasini aniqlashning ilmiy-qadriyatlarga asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan, funksional, instrumental va integratsion tizimlari orqali turistik xizmatlar sifati shakllanishi hamda baholanishida ishtirok etuvchi elementlarning o'zaro ta'siriga asoslangan "Quality in Tourism" blok-sxema modeli afzalliklari asoslangan;

turizm xizmatlarini raqamlashtirish va diversifikatsiya qilish yo'nalishida Milliy turizm yagona platformasi orqali joylashtirish vositalarini onlayn band qilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga shaxsni tasdiqlovchi hujjatsiz MyID tizimi orqali identifikatsiyadan o'tishga ruxsat berish, platformaga ulangan joylashtirish vositalarining shaxsiy kabinetida mehmonni QR-kod yoki yuz orqali identifikatsiya qilish imkoniyatini yaratish asosida hududiy turizm sohasida sifatini oshirish mexanizmini hududlararo o'zaro hamkorlik modellarini shakllantirish bo'yicha turistik xizmatlar sifatini oshirishga boshqaruv ta'siri yo'nalishlarini aniqlash, turizm sohasida raqamli muhitni shakllantirish, raqamli ekotizim elementlari o'zaro aloqadorligini ta'minlashda "Digital Quality in Tourism" usulidan foydalanish bo'yicha taklifi dalillangan;

hududlarda turistik xizmatlar bozorining barqaror rivojlanish tendensiyalari hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida turizm

sohasini rivojlantirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turizmni ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishiga jamiyat hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar orqali turli elementlari uchun turlicha ahamiyatga ega ekzogen va bevosita turizm sohasida namoyon bo'ladigan asosiy hodisa va tendensiyalar bilan bog'liq endogen omillar alohida guruhlariga ajratilib tasniflangan;

mehmonxona xizmatlari sifati samaradorligini oshirish maqsadida Samarqand viloyatidagi mehmonxonalar xizmat sifati ko'rsatkichlarining integral indeklari ishlab chiqilgan;

turistik xizmatlarning sifat darajasini baholash usuli xizmat sifati ko'rsatkichlari nomenklaturasini yaratish, xizmat sifati ko'rsatkichlari qiymati va darajasini aniqlash, turistik xizmatning integrallashgan sifat ko'rsatkichini hisoblash hamda turizm xizmatlarining raqobatbardoshlik darajasini aniqlash bosqichlarini shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism), Xalqaro iqtisodiy forum (WEF), Xalqaro turizm va sayohat kengashi (WTTC), Jahon banki (WB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida turizm tutgan o'rnini belgilash hamda turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish xususiyatlarini aniqlash, bu jarayonni metodologik asoslarini takomillashtirish va davlat qarorlarini qabul qilishda qo'llash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari barqaror turizmni rivojlantirish uchun iqtisodiy-huquqiy, tashkiliy va metodologik-uslubiy asoslarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy manba sifatida foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish va sohaning jozibadorligini oshirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

respublika hududlarida yangi 108 ta mehmonxona, 375 ta oilaviy mehmon uyi va 123 ta xostel qurish, 745 ta kapsula va o'tov uylari, apart-otel hamda modulli mehmonxonalarini tashkil etish maqsadida mehmonxonalar xizmatlari sifati ko'rsatkichlarini integral baholash usulini qo'llash, xizmatlar sifati aniqlash holatini past ($0,246 \leq I_s < 0,401$), o'rta ($0,402 \leq I_s < 0,556$) va yuqori ($0,557 \leq I_s < 0,712$) darajali guruhlarga tabaqalashtirish hamda servisni oshirish ko'rsatkichlarini alohida yo'nalishlar bo'yicha tizimlashtirish asosida yirik, o'rta va kichik mehmonxonalar hamda boshqa turizm obyektlarini qurish loyihalarini amalga oshirishda "Integral turizm" takomillashtirilgan usulidan foydalanish bo'yicha asoslangan takliflar 2025-yil 15-maydagi PF-87-son "Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va targ'ibot ishlarini kengaytirish" bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2026-yil 12-martdagi 02-17/2660-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish hududlarda yangi 108 ta mehmonxona, 375 ta oilaviy mehmon uyi tashkil etishga imkonini bergan;

mamlakatimizda 2030-yilga qadar turizm sohasini rivojlantirish, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizga yetkazish, xorijiy turistlar sonini hozirgi 10 mln nafardan 20 mln nafargacha oshirish, turistik xizmatlar eksporti yillik hajmini 6 mlrd AQSh dollaridan ortiq darajaga yetkazish maqsadida hududda turistik xizmatlar sifati oshirish jarayonini turistik xizmatlar sifati holatining (joriy) darajasini aniqlashning ilmiy-qadriyatlarga asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan, funksional, instrumental va integratsion tizimlari orqali turistik xizmatlar sifati shakllanishi hamda baholanishida ishtirok etuvchi elementlarning o'zaro ta'siriga asoslangan "Quality in Tourism" blok-sxema modelidan foydalanish bo'yicha asoslangan takliflar 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son "Turizmni jadal rivojlantirish va ushbu sohada davlat boshqaruvini takomillashtirish" bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2026-yil 12-martdagi 02-17/2660-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizga yetkazishga zamin yaratilgan;

turizm xizmatlarini raqamlashtirish va diversifikatsiya qilish yo'nalishida Milliy turizm yagona platformasi orqali joylashtirish vositalarini onlayn band qilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga shaxsni tasdiqlovchi hujjatsiz MyID tizimi orqali identifikatsiyadan o'tishga ruxsat berish, platformaga ulangan joylashtirish vositalarining shaxsiy kabinetida mehmonni QR-kod yoki yuz orqali identifikatsiya qilish imkoniyatini yaratish asosida hududiy turizm sohasida sifati oshirish mexanizmini hududlararo o'zaro hamkorlik modellarini shakllantirish bo'yicha turistik xizmatlar sifati oshirishga boshqaruv ta'siri yo'nalishlarini aniqlash, turizm sohasida raqamli muhitni shakllantirish, raqamli ekotizim elementlari o'zaro aloqadorligini ta'minlashda "Digital Quality in Tourism" usulidan foydalanish bo'yicha dalillangan taklifi 2025-yil 15-maydagi PF-87-son "Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va targ'ibot ishlarini kengaytirish" bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2026-yil 12-martdagi 02-

17/2660-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif Milliy turizm yagona platformasidan samarali foydalanishini ikki baravarga oshirishga xizmat qilgan;

hududlarda turistik xizmatlar bozorining barqaror rivojlanish tendensiyalari hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida turizm sohasini rivojlantirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "2026-2030-yillarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari" dasturlari va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2026-yil 12-martdagi 02-17/2660-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish, respublikaga kelgan tashrif buyuruvchilar 84,64 %, turistik xizmatlar eksporti 45,3 %, turizm sohasida band bo'lganlar 16,27 % va mehmonxonalar va joylashtirish vositalariga tashrif buyuruvchilarning o'tkazgan kunlari 18,84 % foizga oshirish imkoniyatlari dalillangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 3 ta va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 144 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida turizm sohasi barqaror rivojlanishining muhim mezoni sifatida "turistik xizmat" va "turistik xizmatlar sifati" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, turistik xizmatlar sifatini oshirishning asosiy tamoyillarini aniqlangan va raqamli transformasiya sharoitida turizm sohasida xizmatlar sifatini oshirish omillari tasnifi ishlab chiqilgan. Shuningdek, turizm sohasida xizmatlar sifatini baholash usullari ilmiy-uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishini ta'minlash, strategik chora-tadbirlarini realizatsiya

qilish, jumladan, ekologik talablar va ijtimoiy ehtiyojlarni nazarda tutuvchi barqaror turizmni amal qilishi, turizmni samarali shakllanishida jahonda sodir bo'layotgan global o'zgarishlar va siyosiy ziddiyatlarining ta'sirini atroflicha hisobga olish hamda rivojlanish dasturlari va konsepsiyalarini ushbu tendensiyalar va jarayonlar ta'sirini nazarda tutgan holda shakllantirish va realizasiya qilishni zarurat etmoqda.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning raqamli transformasiyalashishi sharoitida turizm xizmatlarining ajralmas tavsifi sifatida sifat tushunchasining mohiyatini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu maqsadda "turistik xizmat", "turistik mahsulot", "sifat", "turistik xizmatlar sifati" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritish turizm sohasi rivojlanishining fundamental jihatlarini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif fikricha, turistik xizmatlar – bu turistlar ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq turistik korxonalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, konkret faoliyat turining yakuniy natijasi sifatida turistlarga ko'rsatiladigan asosiy va qo'shimcha xizmatlar majmuidir. Turistik xizmatlar sifati – bu turistik xizmatlarni ko'rsatish jarayonida iste'mol xususiyati orqali namoyon bo'ladigan va turistlarning belgilangan yoki mo'ljallangan ehtiyojlarini qondirish jarayonida ularning talablariga to'liq mos kelishini ta'minlaydigan xizmatlarning jami tavsifidir.



1-rasm. "Turizm xizmatlari sifati" tushunchasining tarkibiy elementlari⁷


Turizm xizmatlari sifati har bir komponentning xususiyatlari, ya'ni xizmat ko'rsatish sifati va turistik ehtiyojlarni aniqlash, moddiy-texnika bazasining sifati, tegishli mahsulotlarning sifati, individual xizmatlar sifati, institutsional muhit va

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilish sifati kabilar bilan belgilanadi (1-rasm).

Muallif tomonidan turistik xizmatlar sifatini oshirishning turizm sohasida hududlar va subyektlar manfaatlarini hisobga olgan holda samaradorlikka erishish, sohani innovatsion rivojlantirish maqsadlarini aniqlash, raqobatli bozor sharoitida turizm sohasida moslashish strategiyasini ishlab chiqish, turistik xizmatlar sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish, turistik xizmatlar sifatini doimiy yaxshilashning uzluksizligini ta'minlash hamda turistik xizmatlar xavfsizligini ta'minlash tamoyillari ishlab chiqildi.

Shuningdek, turizmni ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishiga jamiyat hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar orqali turli elementlari uchun turlicha ahamiyatga ega – ekzogen va bevosita turizm sohasida namoyon bo'ladigan asosiy hodisa va tendensiyalar bilan bog'liq – endogen omillar alohida guruhlariga ajratilib tasniflandi.



2-rasm. Raqamli muhitning turizm xizmatlari sifatini oshirishga ta'siri⁸

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Raqamlashtirish sharoitida turizm biznesining o'ziga xos xususiyati axborot komponentining alohida ahamiyati, axborot oqimlarining ko'pligi va xilma-xilligi bo'lib, ular doimiy yangilanish zarurati, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida axborot almashish operatsiyalarining yuqori tezligi bilan birga sodir bo'ladi. Raqamli transformasiya sharoitida turizm bozorining barcha ishtirokchilari o'rtasida axborot aloqalari mavjud bo'lib, turizmni rivojlantirishning yangi tendensiyasiga e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy turistik xizmatlar sifatini oshirishning zarur sharti raqamli muhitning shakllanish omillari va shart-sharoitlari bilan belgilanadi (2-rasm).

Raqamli infratuzilmadan foydalanish va turistik va rekreatsion xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar bilan o'zaro hamkorlik qilish bosqichida xizmatlar sifati haqida taassurot paydo bo'ladi, bu hududiy bozor uchun sodiq mijozlar kontingentini shakllantiradi.

Turizm xizmatlari sifatini baholash usuli quyidagi bosqichlardan iborat: 1-bosqich. Xizmat sifati ko'rsatkichlari nomenklaturasini yaratish. Sifat ko'rsatkichlari nomenklaturasini o'rnatish uchun bir xil xizmatlar guruhini (turini) aniqlash kerak. Bu turistik xizmatlar tasniflagichlari orqali amalga oshirish mumkin. 2-bosqich. Baholashning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash. Obyektlar sifat darajasini aniqlash jarayoni amaldagi ko'rsatkichlar qiymatlarini belgilangan mezonlar bilan qiyosiy tahlil qilishga asoslanadi. 3-bosqich. Xizmat ko'rsatish sifati ko'rsatkichlarini baholash tartibi. Xizmat sifati ko'rsatkichlari qiymatlarini aniqlash ekspert va sotsiologik usullar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda baholanayotgan xizmatning sifat ko'rsatkichlarining raqamli qiymatlarini o'xshash xizmatning sifat ko'rsatkichlarining raqamli qiymatlari bilan taqqoslash mumkin. 4-bosqich. Xizmat sifati ko'rsatkichlarining ahamiyatini aniqlash. Sifat ko'rsatkichlari iste'molchi va korxonalar uchun ham har xil ahamiyatga ega, shuning uchun ularni tartiblash kerak. Ko'rsatkichlarning muhimlik darajasi vazn koeffitsiyenti bilan baholanadi. 5-bosqich. Xizmatlar ko'rsatish sifatining kompleks ko'rsatkichini hisoblash. Kompleks sifat ko'rsatkichi yaxlit xizmat sifatini tavsiflaydi. 6-bosqich. Baholanayotgan xizmat sifati darajasini aniqlash. Bu bosqichda baholanayotgan xizmatning sifat darajasi aniqlanadi, bu uning taqqoslanadigan xizmatga nisbatan o'rnini aks ettiradi. Buning uchun tahlil qilinayotgan xizmatning integral sifat ko'rsatkichining shunga o'xshash xizmatning integral sifat ko'rsatkichiga nisbatini qo'llaniladi. 7-bosqich. Xizmatning integrallashgan sifat ko'rsatkichini hisoblash. Xizmat sifatining kompleks ko'rsatkichini olish uchun qilingan xarajatlarga nisbatiga asoslangan integratsiyalashgan sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. 8-bosqich. Xizmat ko'rsatish sifatining raqobatbardoshlik darajasini aniqlash. Xizmat ko'rsatish sifatining raqobatbardoshlik darajasi – baholanayotgan xizmat uchun hisoblangan integral sifat ko'rsatkichi hamda taqqoslash uchun tanlangan o'xshash xizmatning integral sifat ko'rsatkichi orasidagi nisbati sifatida aniqlanadi.

Dissertatsiya ishining **“O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanish holati, omillari, ko'rsatkichlari va xizmatlar sifatini boshqarish usullari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada turizm sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari hamda turizm sohasida xizmatlar sifatini

oshirishning sotsiologik tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, turizm sohasida xizmatlar sifatini integral baholash usullari tadqiq qilingan.

O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada o‘ydi. 2016-yilda mamlakatimizga taxminan 1 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 6,8 millionga yetdi. Tahlillarga ko‘ra, o‘tgan yili 810 ta yangi turoperator va turfirma faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Turizm va unga yondosh sohalarda 70 mingta yangi ish o‘rinlari yaratildi. 183 ta mehmonxona, 215 ta hostel, 356 ta oilaviy mehmon uyi ishga tushgan. Joylashtirish vositalari 5477 taga, o‘rinlar soni esa 142 ming 720 taga yetgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida turizm va mehmonxona faoliyatini amalga oshirishning asosiy ko‘rsatkichlari⁹ (birlik, yil boshiga)

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | | 2020-2024 y.y.da o‘zgarish, % |
|--|---------|--------|---------|---------|---------|-------------------------------|
| | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | |
| Turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlar soni | 517 | 337 | 288 | 348 | 365 | 70,6 |
| Turistik firma va tashkilotlar xodimlari soni | 2920 | 2330 | 1956 | 2793 | 3092,7 | 105,9 |
| Gid va tarjimonlar soni | 238 | 141 | 129 | 180 | 192 | 80,7 |
| Ekskursavodlar | 181 | 96 | 66 | 91 | 98 | 54,1 |
| Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni | 1013 | 1111 | 834 | 1093 | 1158 | 114,3 |
| Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari xodimlar soni | 9738 | 8066 | 8191 | 11790 | 12840 | 131,9 |
| Xonalar | 23528 | 25584 | 21814 | 29218 | 34229 | 145,5 |
| Joylar | 46671 | 50408 | 43504 | 59327 | 65163 | 139,6 |
| Joylashtirigan shaxslar | 2193394 | 702838 | 1216976 | 2250276 | 2485663 | 113,3 |

O‘zbekistonda turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, 517 tani tashkil qilgan holda Pandemiya sababli 2021-yil shu davriga nisbatan 65,2 %gacha qisqargan. Ushbu firma va tashkilotlar soni keyingi yillarda ko‘paygan bo‘lsada, bu ko‘rsatkich tahlil qilinayotgan yillarda 70,6 %ni tashkil qilgan. Turistik firma va tashkilotlar xodimlari soni 2020-2024 yillarning boshida 5,9 %ga oshgan. Ushbu yillarda gid va tarjimonlar soni 80,7 %ni, ekskursavodlar soni 54,1 %ga qisqargan bo‘lsa, Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni 14,3 %ga, mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari xodimlar soni 31,9 %ga

⁹ www/uzbektourism.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

oshgan. Shuningdek, respublikada mehmonxonalar joylashtirilgan shaxslar soni 13,3 %ga o'sgan (1-jadval).

Turizm sohasida xizmatlar sifatini baholashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ular mijozlarning qoniqish darajasini aniqlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini tahlil qilish va turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratiladi. Shu maqsadda turizm sohasida xizmatlar sifati holatini o'rganish va baholash bo'yicha Samarqand viloyati hududlari miqyosida "online" sotsiologik so'rov o'tkazildi.

Mehmonxona xizmatlaridan umumiy qoniqish darajangiz qanday baholaysiz? degan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning aksariyati (48,2% – 147 kishi) mehmonxona xizmatlarini "yaxshi" deb baholagan va bu xizmat sifati qoniqarli ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, 24,9% (76 kishi) respondentlar "juda yaxshi" deb baholagan, bu mehmonxona xizmatlari bo'yicha ijobiy tajribalarning yetarlicha yuqori ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 23,6% (72 kishi) respondentlar xizmatni "o'rtacha" deb baholagan bo'lsa, 2,0% (6 kishi) qoniqarsiz va 1,3% (4 kishi) juda yomon baho bergan. Ushbu ko'rsatkichlar mehmonxona sohasida xizmat ko'rsatish sifati hali ham muammolar borligini anglatadi.

Ekskursiya narxi va sifat nisbati bo'yicha respondentlarning fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, umumiy respondentning 193 nafari (63,3%) ekskursiya narxi va sifati mos kelganini bayon etgan, bu esa aksariyat sayohatchilar xizmat narxini o'ziga yarasha deb hisoblashini anglatadi. Shu bilan birga, 77 nafar respondent (25,2%) narx yuqori bo'lib, xizmat sifati past ekanini qayd etgan, bu esa muayyan qoniqarsizlikni bildiradi. Qiziqarli jihati shundaki, 26 nafar respondent (8,5%) xizmat sifatini yaxshi baholagan bo'lsa-da, narxi past ekanini bildirgan, ya'ni ular xizmatni nisbatan arzon deb hisoblagan. Biroq, 9 nafar respondent (3,0%) umuman qoniqarsiz degan javobni bergan, bu esa ekskursiya narxi va sifati o'rtasidagi tafovut ayrimlar uchun sezilarli bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Respondentlar bilan o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi: mehmonxona va restoran xizmatlarida xalqaro standartlarga javob beradigan sifat nazorat tizimini joriy etish; xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari uchun doimiy ravishda o'quv-trening dasturlarini tashkil etish; transport, yo'llar, axborot markazlari va boshqa turistik infratuzilmalarni rivojlantirish; mahalliy va xalqaro miqyosda O'zbekiston turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun zamonaviy reklama vositalaridan foydalanish; onlayn bronlash tizimlari, interaktiv mobil ilovalar va turistik yo'nalishlar bo'yicha virtual gid xizmatlarini rivojlantirish. Bu takliflar turistik xizmatlarning sifatini oshirish va O'zbekistonning turizm salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Turizm sohasida xizmatlar sifati samaradorligini integral baholash – bu xizmat ko'rsatish jarayonining barcha jihatlarini kompleks tahlil qilib, yagona umumiy natijaga (integral ko'rsatkichga) keltirish jarayonidir. Integral baholashning asosiy maqsadi – turizm korxonasining xizmat sifati darajasini obyektiv aniqlash, raqobatbardoshligini baholash va sifatni boshqarish strategiyasini takomillashtirishdan iborat. Ushbu sohada xizmatlar sifati

samaradorligini integral baholash uchun Samarqand viloyatidagi faoliyat ko'rsatayotgan mehmonxonalar "Hotel Asia Samarkand" MCHJ, "Konstantin Itol" MCHJ, "Registon Plaza" MCHJ, "Orient Star" MChJ, "El Emir" MChJ tadqiqot obyekti sifatida olindi.

Mehmonxona xizmatlari sifati samaradorligini integral baholash jarayonida tanlab olingan ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklarida ifodalanadi. Shu sababli ularni to'g'ridan to'g'ri solishtirish yoki yagona tahliliy baho berish qiyinlashadi. Shu holatda barcha ko'rsatkichlarni bir xil o'lchov mezoniga keltirish zarur bo'ladi. Mazkur jarayon normallashtirish (yoki standartlashtirish) deb ataladi. Tanlab olingan mehmonxona xizmatlari sifati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning normallashtirilgan qiymatlari hisoblab chiqildi.

Vazn koeffitsientlarini aniqlashning asosiy maqsadi – integral (umumiy) samaradorlik ko'rsatkichini hisoblashda har bir omilning nisbiy ulushini aniqlab olish, natijada baholash tizimining obyektivligini ta'minlashdir. Bunda vazn koeffitsientlari ekspert usuli yordamida hisoblab chiqiladi. Ekspert yondashuvining mohiyati shundan iboratki, korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi har bir ko'rsatkichning ahamiyati soha bo'yicha tajribali mutaxassislar – ekspertlarning fikrlariga asoslanib belgilanadi. Ushbu usul subyektiv fikrlarni ilmiy asosda tizimlashtirishga, tahliliy jarayonni soddalashtirishga hamda real amaliy holatlarni hisobga olishga imkon yaratadi. Ekspertlar mehmonxona xizmatlari sifati ko'rsatkichlarini 10 ballik baholash shkalasi asosida baholab chiqdilar. Har bir ko'rsatkich uchun vazn koeffitsienti aniqlandi.

2-jadval

Samarqand viloyatidagi mehmonxonalar xizmat sifati ko'rsatkichlarining integral indeksleri¹⁰

| Belgi | "Asia Samarkand" MCHJ | "Konstantin Itol" MCHJ | "Registon Plaza" MCHJ | "Orient Star" MChJ | "El Emir" MChJ |
|--------------|-----------------------|------------------------|-----------------------|--------------------|----------------|
| X1 | 0,101 | 0,090 | 0,067 | 0,080 | 0,000 |
| X2 | 0,015 | 0,021 | 0,080 | 0,054 | 0,000 |
| X3 | 0,029 | 0,015 | 0,113 | 0,055 | 0,000 |
| X4 | 0,024 | 0,101 | 0,052 | 0,042 | 0,000 |
| X5 | 0,002 | 0,001 | 0,007 | 0,004 | 0,000 |
| X6 | 0,106 | 0,035 | 0,005 | 0,006 | 0,000 |
| X7 | 0,092 | 0,038 | 0,000 | 0,043 | 0,034 |
| X8 | 0,092 | 0,086 | 0,000 | 0,088 | 0,087 |
| X9 | 0,073 | 0,068 | 0,000 | 0,070 | 0,069 |
| X10 | 0,082 | 0,041 | 0,000 | 0,062 | 0,041 |
| X11 | 0,096 | 0,026 | 0,000 | 0,021 | 0,015 |
| Iint. | 0,712 | 0,522 | 0,324 | 0,525 | 0,246 |

Integral baholash indeksini aniqlash uchun quyidagi formula qo'llaniladi¹¹:

¹⁰ Muallif tomonidan tuzildi

¹¹ Opricovic, S., & Tzeng, G. H. (2004). Compromise solution by MCDM methods: A comparative analysis of KOR and TOPSIS. European Journal of Operational Research, 156(2), 445–455.

$$I = \sum_{i=1}^n W_i \times Q_{ij} \quad (1)$$

bu yerda: W_i - i-ko'rsatkichning vazn koeffitsiyenti; Q_{ij} - i-ko'rsatkichning normallashtirilgan qiymati; n – ko'rsatkichlar soni.

(1) formula asosida xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorlik ko'rsatkichlarining kompozit va integral indeksleri ishlab chiqildi (2-jadval).

Mehmonxona xizmatlari sifatini baholashda integral indeks asosida reyting tuzish jarayoni ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday reyting korxonaning iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va ijtimoiy faoliyati natijalarini yagona kompleks ko'rsatkich orqali miqdoriy ifodalash imkonini beradi. Reyting tizimining asosiy vazifasi – xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatidagi nisbiy ustunliklarni aniqlash, ularning raqobatbardoshlik darajasini baholash hamda tarmoqdagi holatni doimiy monitoring qilishdir. Integral indekslar yordamida shakllantirilgan reyting esa har bir korxonaning o'ziga xos rivojlanish bosqichini, resurslardan foydalanish samaradorligini va boshqaruv strategiyasining natijadorligini aniq aks ettiradi (3-jadval).

3-jadval

Samarqand viloyatidagi mehmonxonalar xizmatlar sifati ko'rsatkichlarini integral indeksi bo'yicha tuzilgan reytingi¹²

| Korxonalar | Integral indeks | Reyting |
|-----------------------|-----------------|---------|
| “Asia Samarkand” MChJ | 0,712 | 1 |
| “Orient Star” MChJ | 0,525 | 2 |
| “Konstantin Itol” | 0,522 | 3 |
| “Registon Plaza” MChJ | 0,324 | 4 |
| “El Emir” MChJ | 0,246 | 5 |

3-jadval ma'lumotlari asosida mehmonxonalar xizmatlari sifati ko'rsatkichlari “interval (kvantil)” usuli yordamida 3 toifaga (yuqori, o'rta va o'rtachadan past) ajratildi (4-jadval).

4-jadval

Samarqand viloyatidagi mehmonxonalar xizmatlar sifati ko'rsatkichlari darajalarining toifalari¹³

| Toifa | Intervallar | Mehmonxonalar |
|---------------|-------------|----------------------------------|
| Yuqori daraja | 0,557-0,712 | “Asia Samarkand” |
| O'rta daraja | 0,402-0,556 | “Orient Star”, “Konstantin Itol” |
| Past daraja | 0,246-0,401 | Registon Plaza, “El Emir” |

Integral indekslar tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi mehmonxonalar o'rtasida xizmat sifati va iqtisodiy samaradorlik darajasi sezilarli farq qiladi.

Umuman olganda, Samarqand viloyatidagi mehmonxona tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish uchun: xizmat sifati bo'yicha yagona baholash va monitoring tizimi joriy etish; raqamli transformatsiya (bron tizimi, onlayn

¹² Muallif tomonidan tuzildi

¹³ Muallif tomonidan tuzildi

reklama, mijoz tahlili)ni jadallashtirish; xodimlar malakasini oshirish va xizmat madaniyatini rivojlantirish; innovatsion xizmat turlari (ekoturizm, oilaviy paketlar, madaniy sayohat dasturlari)ni kengaytirish zarur.

Dissertatsiya ishining **“Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida turistik xizmatlar sifatini oshirish mexanizmi va soha rivojlanishining istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida turistik xizmatlar sifatini boshqarishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish texnologiyasi takomillashtirilib, hududiy turizm xizmatlar sifatining innovatsion salohiyatini rivojlantirish yo‘llari aniqlangan hamda turizm sohasida raqamli transformatsiyasi asosida innovatsion rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslagan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.


